

Andijon davlat universiteti
Sport va san'at fakulteti
Musiqqa san'ati kafedrası
Vokal ijrochiligi yo'nalishi o'qituvchisi
No'monov Iftixorjon Iqboljon og'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek milliy va an'anaviy ijrochiligi hamda ustozlarimiz tamonidan yaratilgan yurtimizdagi mahalliy ijrochilik uslublari haqida so'z boradi. Hozirgi kunda yurtimizda maqom san'atiga juda katta etibor qaratilmoqda. Musiqqa merosimizni hozirgi davr talabi darajasida o'rganish, ularni tiklash va avaylab asrash orqali yosh avlodni milliy ruxda tarbiyalashda maqom ashulalarini ustozlar yaratgan uslublari orqali o'rgatish muhim o'rin tutishi haqida fikr mulohazalar yuritiladi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются узбекские национальные и традиционные исполнительские и местные исполнительские стили, созданные нашими мастерами в нашей стране. В настоящее время в нашей стране уделяется большое внимание искусству макома. Считается, что обучение макомным песням через стили, созданные мастерами, играет важную роль в воспитании подрастающего поколения в национальном духе путем изучения нашего музыкального наследия на уровне современных требований, его восстановления и бережного сохранения.

Annotation: This article discusses the Uzbek national and traditional performance and local performance styles created by our masters in our country. Currently, great attention is paid to the art of maqom in our country. It is considered that teaching maqom songs through the styles created by masters plays an important role in educating the younger generation in the national spirit by studying our musical heritage at the level of modern requirements, restoring and carefully preserving it.

Kalit so'zlar: Musiqqa, kompozitor, bastakor, an'anaviy ijrochilik, san'at, ustoz-shogird, sozanda, maktab, uslub.

Ключевые слова: Музыка, композитор, традиционное исполнение, искусство, учитель-ученик, музыкант, школа, стиль.

Keywords: Music, composer, variety, traditional performance, art, teacher-student, musician, school, style.

An'ana – o'tmishdan kelajakka meros qoladigan, avloddan avlodga o'tadigan, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy qadriyatdir. Jumladan milliy, ma'daniy, maishiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy va boshqa an'analar bor. An'analar xalqlarning tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllanadi. Odamlarning turmush tarzi, moddiy shart-sharoitlari turli an'analarning shakllanishiga ta'sir qiladi. An'analar yoshlarni tarbiyalash, ularni keksa avlod tajribalariga o'rgatish vositasi hamdir. Milliy an'analrimizdan biri hisoblangan An'anaviy ijrochilik xalqimizga qadim-qadimdan merosdir. O'zbek milliy musiqasi ko'p asrlilik tarixga ega. Musiqiy san'atning kelib chiqishini o'rganishda O'rta va Yaqin Sharq musiqiy olami mifologiyasiga tegishli

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

totemizmg'a e'tibor qaratish joiz. Totemizmg' ibtidoiy jamoa tuzumining qadimgi davrida, matriarxat hukmronligida yuzaga kelgan bo'lib, uning ilk tasavvurlari farishtalar, devu-jinlar, hayvonlar va o'simliklar bilan bog'liq bo'lgan. Ushbu davrga oid afsonalarda rivoyat qilinishicha, kunlardan bir kun, bir olim yo'lda ketayotib, dam olish uchun bir daraxt tagiga o'tiribdi. U shoxdan-shoxga sakrab yurgan maymunni ko'ribdi. Birdan maymun o'tkir shoxga ilinib, qorni yorilib ketibdi va ichaklari ikkita shox orasiga tortilib qolibdi. Biroz vaqt o'tgach, bu ichaklar quribdi, shamol esib, undan yurakni maftun etuvchi tovush taralibdi. Olim bu ichaklarni olib, qiyshiq taxtaga tortib qo'ygan ekan, undan yana ham go'zal tovushlar taralibdi. So'ngra u bir necha tor yasab, taxta ostiga qovoq o'rnatibdi va natijada musiqiy cholg'u asbobi paydo bo'libdi. Bundan keyin olimlar bu asbobni qonun va rebab cholg'ulari yasalgunga qadar turlicha takomillashtirgan. Yana shunga o'xshash rivoyatlardan birida hikoya qilinishicha, tanbur, dutor, nay, g'ijjak cholg'ulari to'rtta farishta, ya'ni elchi farishta Jabroil, olamni harakatlantiruvchi farishta Mikoil, oxiratda karnay chaluvchi bo'ron farishtasi Isrofil, jon oluvchi farishta Azroillarning jonni adam Ato tanasiga kiritishdagi sa'yi-harakatlari tufayli vujudga kelgandir. Sozanda va mehtarlik risolalarida qayd etilishicha, ular jannatdan «dup», ya'ni tut yog'ochini olib chiqib cholg'ularni yasagan ekanlar. Yuqoridan ko'rinib turibdiki, musiqa san'atining, musiqiy cholg'ularning kelib chiqishi qadim-qadim davrlarga borib taqaladi, ular insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlaridan o'tib, takomillashib bordi va o'rta asrlarga kelib ilk bora al-Farobiy, Abdurahmon Jomiy, Darvishali Changiy singari mutafakkirlarning risolalarida ilmiy jihatlama o'z ifodasini topdi. An'anaviy ijrochilikda mahalliy uslublarning jadal shakllanish jarayonlari XVI-XIX asr birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Chunki aynan shu tarixiy davr mobaynida musiqa madaniyati serjabha ko'rinishlarda rivojlandi, uning Turkiston xalqlari ma'naviy-ijtimoiy hayotida tutgan o'rni tobora ortdi. Endilikda musiqaning namoyon bo'lish "sahna"lari ham ko'payib borganligini ko'ramiz. Xususan, an'anaviy milliy maqom va mushoiraxonlik majlislari xon saroylari va amaldorlarning koshonalari qatorida bozorlarning maydonlarida, hunarmandlarning ustaxonalarida, choyxonalarda va boshqa ko'rinishlarda hozir bo'lishi kuzatiladi. Madaniyat va ma'rifat o'choqlari bo'lgan Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo'qon, Namangan, Andijon, Toshkent kabi shaharlarda kitobxonlik, g'azalxonlik, qissaxonlik, maddohlik kabi o'quv yo'llari rivoj topdi. Ustoz shogird an'anali rivojlanib bordi.

Xalqimizning istiqbolga erishishi munosabati bilan azaliy qadriyatlarimizni tiklash, o'z tariximizni, milliy urfodat va an'alrimizni, ma'anaviy madaniy boyligimiz an'anaviy ijrochilik san'atimizni atroflicha o'rganish hamda undan bahramand bo'lish imkoniyati vujudga keldi. An'anaviy ijrochilik san'atiga xalqimizning birinchi prizidenti I.Karimov va bugungi kundagi yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev tamonidan ham juda islohatlar olib borilmoqda. Xalqimiz orasida "an'anaviy ijrochilik" san'ati bugungi kunda ham o'z muxlislari va shinavandalari safini kengaytirib, ularning nozik qalblarini rom etib kelmoqda. An'anaviy ijrochilik san'atiga qiziqib bu san'atni sitqidildan o'rganishni o'zining oldiga maqsad qilgan bugungi kun avlod vakillari o'tmishda ustozlar tamonidan yaratilgan bu ulkan merosni o'qib o'rganib, idroqlab, ardoqlab, ijro etib o'zlashtirsalar, ajdodlarga va zamonaga munosib san'atkor bo'lib yetishadilar.

Og'zaki an'anada shakllanib rivojlangan musiqa san'ati o'zida mislsiz ijro uslublari va yo'llarni mujassam etgan. ularning asosi garchand bir bo'lsa-da, ijro talqini rang-barangligi bilan ajralib turadi. Endi ijrochilik san'atiga keladigan bo'lsak, bunda "ijrochilik san'ati – xalq og'zaki ijodi va klassik adabiyot bilan uzviy aloqada rivojlangan. O'rta asrlarda xalq musiqa ijodining og'zaki an'analari keng tarqalgan bo'lib, ular cholg'u musiqasining har xil janrlarini qamrab olgan edi. To'y-tomosha, bayramlar, xaql og'zaki ijodining an'anaviy intonatsion tuzilishi bilan bog'liq

maqom turkumlari singari rang-barang musiqa san'ati turlari ulkan madaniy meros sifatida avloddan-avlodga o'tib kelgan." Shunday qilib an'anaviy ijrochilik tarixi juda ham boy o'tmishga ega. **O'zbekistonda milliy musiqa An'anaviy ijrochiligining o'ziga xos uslublari, asosan, Andijon, Buxoro va Xorazm an'anaviy maktablari orqali namoyon bo'lgan.**¹Mazkur iqtibos qandaydir ma'noda to'g'ridir .Biroq O'zbekistonda ijrochilik maktabi haqidagi bor haqiqatni o'zida aks ettira olmaydi. Chunki bu fikr juda ham umumiy yoki shartli ravishda aytilgan. Aslida, "...**Andijon, Buxoro va Xorazm an'anaviy maktablari**"ning har biri yana ma'lum maktablarga bo'linib ketishi mumkin. Aniqrog'i, umumiy uslub – uslub maktab ko'lamini belgilashda siyosiy-geografik chegaralarga tayanib ish tutish har doim ham muvafaqqiyatli chiqavermaydi. Masalan, bir hududning ma'lum bir qismi va ikkinchi bir mintaqaning muayyan bir bo'lagi yagona maktabga xos ijrochilikni kasb etgan bo'lishi ham mumkin. Demak, ijrochilik uslublari tasnif etishda va hududiy maktablarni belgilashda juda ham ehtiyot bo'lish va chuqur ilmiy izlanishlarga tayangan holdagina xulosaviy fikr aytish lozim. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, yakka shaxslarning ijroviy uslublari birlashib, muayyan voqa va umummintaqaviy ijrochilik uslublari asos bo'ladi.

Xujlosa: An'anaviy ijrochilik ijodiy merosi nihoyatda boy va keng ko'lamlidir. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ustozlar yaratgan ijodi ijro uslublari hamisha barhayotdir. Musiqiy merosimiz nihoyatda boydir. U qanchalik chuqur va atroflicha o'rganilar ekan, yangidan yangi qirralari ochilaveradi va uning rivojiga o'zlarining hissalarini qo'shgan ijodkorlarning nomlari "kashf" etilaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I "O'ZBEK AN'ANAVIY CHOLG'ULARI" SOIPJON BEGMATOV, MATRASUL MATYOQUBOV

II "MAQOMLAR" ISHOQ RAJABOV

III "G'IJJAK IJROCHILIGIDA MAXALIY USLUBLAR" NABIJON QODIROV

IV "G'IJJAK" O'LMAS RASULOV

V "INTERNET MALUMOTLAR"

¹Rasulov O'. "G'ijjak" // O'zME 11-jild. Davlat milliy nashriyoti, 2005. 231-232-betlar